Abstract: Entrepreneurship is one of the most important sectors of the economy, playing a key role in the sustainable development of the country, the creation of new jobs, and the improvement of public welfare. Therefore, many countries, including the Republic of Uzbekistan, pay special attention to the development of entrepreneurship, its encouragement, and state support. This article analyzes the positive aspects of government support for entrepreneurship in Uzbekistan.

Key words: entrepreneurship, government support, technology parks, startup incubators, scientific and technical centers, innovation activity, Uzbekistan's.

Аннотация: Предпринимательство – это одна из важнейших отраслей экономики, играющая значительную роль в устойчивом развитии страны, создании новых рабочих мест и повышении благосостояния населения. Поэтому во многих странах, в том числе и в Республике Узбекистан, развитию предпринимательства, его стимулированию и государственной поддержке уделяется особое внимание. В данной статье будет проанализировано положительное состояние государственной поддержки предпринимательства в Узбекистане.

Ключевые слова: предпринимательство, государственная поддержка, технопарки, стартап-инкубаторы, научно-технический центр, инновационная деятельность, экономика Узбекистана.

KIRISH

Bugungi global iqtisodiyotda raqobatbardoshlik, innovatsion faoliyat va yangi ish o'rinlarini yaratish yo'lidagi asosiy omillardan biri bu – tadbirkorlikdir. Har bir rivojlanayotgan davlatda tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy o'sishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida e'tirof etiladi. Tadbirkorlik faoliyati orqali aholining bandligi ta'minlanadi, budjetga tushumlar ko'payadi va ijtimoiy muammolar yechimiga hissa qo'shiladi. Shu boisdan ham zamonaviy davlatlar, xususan O'zbekiston Respublikasi, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosatini o'zining asosiy strategik yo'nalishlaridan biri sifatida belgilagan.

Davlat tomonidan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, avvalo, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiyotning yangi tarmoqlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, pandemiyadan keyingi davrda kichik va o'rta biznesni qayta tiklash uchun maxsus subsidiyalar, soliq yengilliklari va imtiyozli kreditlar ajratildi. Bu esa tadbirkorlarning yangi bosqichga chiqishlariga imkon yaratdi.

Bundan tashqari, davlat tomonidan yoshlar, xotin-qizlar, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar uchun alohida dasturlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular orqali minglab yangi ish o'rinlari yaratilmoqda. Ayniqsa, "Yoshlar – kelajagimiz", "Ayollar daftari" kabi tashabbuslar aynan ijtimoiy tenglikni ta'minlashda ham tadbirkorlik vositasi sifatida xizmat qilmoqda.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

“Tadbirkorlik faoliyati to’g’risida” O’zbekiston Respublikasining Qonuni O’zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini yuritishning huquqiy asoslarini belgilaydi. Unda tadbirkorlik subyektlari turlari, ularning huquq va majburiyatlari, davlat organlari bilan munosabatlari, litsenziyalash, ro’yxatdan o’tkazish tartiblari va boshqa muhim jihatlar yoritilgan. Qonun tadbirkorlikni erkinlashtirish, byurokratik to’siqlarni kamaytirish va investorlar uchun qulay muhit yaratishga xizmat qiladi.[1]. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish va tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish to’g’risida”gi PF-5511-sonli Farmoni tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish va davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirishga qaratilgan. Unda kredit resurslaridan foydalanishni osonlashtirish, soliq imtiyozlarini kengaytirish, hududiy tadbirkorlik dasturlarini amalga oshirish kabi yo’nalishlar ko’zda tutilgan. Farmonning amaliy natijasi sifatida, O’zbekistonda texnologik parklar, biznes inkubatorlar va boshqa infratuzilmalar joriy qilinmoqda.[2]. 2021–2030 yillarga mo’ljallangan O’zbekiston Respublikasining kambag’allikni qisqartirish strategiyasi iqtisodiy islohotlar orqali aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag’allikni kamaytirishga qaratilgan. Unda bandlikni oshirish, tadbirkorlikni rag’batlantirish, ayollar va yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratish ustuvor yo’nalish sifatida belgilanadi. Strategiya doirasida ko’plab grantlar, imtiyozli kreditlar va kasb-hunar o’rgatuvchi dasturlar joriy qilinmoqda. Bu esa bevosita tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga turtki beradi.[3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Metodologik yondashuv sifatida maqolada analitik, taqqoslash, tizimli tahlil usullari qo’llanilgan. Ushbu metodologiya yordamida O’zbekistonning tadbirkorlik subyektlarining o’sish dinamikasi, kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIM dagi ulushi dinamikasi atroficha o’rganilib, chuqur tahlil qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadbirkorlik faoliyatining samarali rivojlanishi uchun mustahkam huquqiy baza zarur. O’zbekistonda bu borada keyingi yillarda muhim yutuqlarga erishildi. Jumladan, “Tadbirkorlik faoliyatining erkinligini kafolatlash to’g’risida”gi qonun, “Tadbirkorlik subyektlarini qo’llab-quvvatlash jamg’armasi to’g’risida”gi nizom va boshqa bir qator normativ hujjatlar ushbu sohaning huquqiy asosini mustahkamlab berdi.

Davlat tomonidan tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida “Biznes-ombudsman” instituti tashkil etildi. Ushbu institut tadbirkorlar manfaatlarini himoya qilish, ularni noqonuniy tekshiruvlardan asrash va zarur holatlarda sudgacha bo’lgan bosqichda yordam ko’rsatish bilan shug’ullanadi.

Shuningdek, litsenziyalash, ro’yxatdan o’tkazish, nazorat qilish jarayonlarining soddalashtirilishi, “yagona darcha” tamoyili asosida elektron xizmatlarning joriy etilishi tadbirkorlar uchun byurokratik to’siqlarni kamaytirdi. Bu esa sohada erkinlik darajasining ortishiga, vaqt va xarajatlarning qisqarishiga olib keldi.

Umuman olganda, me’yoriy-huquqiy asoslarning kuchaytirilishi nafaqat tadbirkorlik faoliyatining himoyasini ta’minladi, balki unga bo’lgan ishonchni ham mustahkamladi.

Tadbirkorlik faoliyatini boshlash va rivojlantirish uchun zarur shartlardan biri – bu yetarli miqdorda moliyaviy resurslarga ega bo’lishdir. Shu sababli, davlat tomonidan tadbirkorlarga moliyaviy yordam ko’rsatish bo’yicha turli mexanizmlar ishlab chiqilgan va ularning amaliyotda qo’llanilishi kengaymoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda tadbirkorlar uchun imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, kafolatlar va grantlar ajratilmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki hamda tijorat banklari tomonidan kichik va o’rta biznes vakillariga imtiyozli shartlarda kreditlar ajratilmoqda. Kreditlar foiz stavkalarining pasaytirilishi, garov talablarining yumshatilishi va to’lov muddatlarining cho’zilishi tadbirkorlikni moliyaviy jihatdan yengillashtirmoqda. Bundan tashqari, Davlat tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlash jamg’armasi orqali biznes loyihalarga kafolat berish va foiz xarajatlarni qoplab berish tizimi yo’lga qo’yilgan.

Yosh tadbirkorlar uchun esa grant dasturlari ishlab chiqilgan. Misol uchun, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi tomonidan “startup” loyihalarini moliyalashtirish uchun millionlab so’mlik mablag’lar ajratilmoqda. Bularning barchasi moliyaviy resurslardan teng foydalanish imkonini yaratib, yangi biznes subyektlarining vujudga kelishiga va faoliyatini kengaytirishiga zamin yaratmoqda.

Tadbirkorlikni rivojlantirishda soliq va bojxona imtiyozlari muhim rol o’ynaydi. O’zbekistonda bu borada olib borilayotgan siyosat tadbirkorlar zimmasidagi moliyaviy yukni kamaytirish, ularni rag’batlantirish va biznes muhitini yengillashtirishga qaratilgan.

So’nggi yillarda kichik va o’rta biznes subyektlari uchun bir qator soliq yengilliklari joriy etildi. Jumladan, yillik aylanmasi ma’lum miqdordan oshmaydigan korxonalar uchun qat’iy belgilangan soliq stavkalari belgilandi. Shuningdek, yangi tashkil etilgan korxonalar dastlabki yillarda ayrim soliq turlaridan ozod qilinmoqda. Import qilinadigan texnologik uskunalar va xom ashyolar uchun bojxona bojlaridan ozod etish tartibi ham amalda.



Bundan tashqari, 2022-yildan boshlab ayrim hududlarda “erkin iqtisodiy zonalar” tashkil etilib, ular orqali tadbirkorlarga 10 yilgacha bo'lgan muddatda soliqdan ozod etish, import bojlari va aksiz to'lovlaridan kechish imkoniyati berildi. Bu holat o'z navbatida investorlar va mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun jozibali sharoit yaratmoqda.

Tadbirkorlikni rivojlantirishda faqat moliyaviy yordam emas, balki qulay infratuzilmaviy sharoitlar yaratish ham juda muhim ahamiyatga ega. Infratuzilma deganda – ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, logistika, texnoparklar, biznes inkubatorlar, sanoat zonalar, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari va axborot texnologiyalari tushuniladi.

O'zbekistonda aynan ushbu yo'nalishda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatildi. Respublikada faoliyat yuritayotgan erkin iqtisodiy zonalar (EIZ), kichik sanoat zonalar (KSZ), biznes-inkubatorlar va texnoparklar tadbirkorlar uchun qulay platformalarga aylanmoqda. Bu yerda ularga tayyor bino va yer uchastkalari, soliq yengilliklari, texnik yordam va maslahat xizmatlari taklif qilinadi.

2025-yilning 1 –yanvar holatiga ko'ra ishtirokchisi mavjud maxsus iqtisodiy zonalar soni 25 ta, kichik sanoat zonalar soni 416 ta, texnoparklar soni 23 ta hamda klasterlar soni 433 ta mavjud bo'lib, ularning tarkibidagi korxonalar soni MIZ larda 1071 ta, KSZ larda 3331 ta, texnoparklarda 2637 ta va klasterlarda 456 taga yetdi.

Ayni paytda Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Navoiy va Buxoro viloyatlarida faoliyat yuritayotgan texnoparklar nafaqat mahalliy, balki xorijiy investitsiyalarni jalb qilgan holda innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yimoqda.

Shuningdek, biznes-inkubatorlar orqali yoshlar va startap loyihalarga ko'mak ko'rsatish amaliyoti joriy etilgan bo'lib, ular uchun bepul ofis maydonlari, IT xizmatlar, marketing, huquqiy va buxgalteriya bo'yicha maslahatlar berilmoqda.

Bu kabi infratuzilmaviy yordamlar tadbirkorlik faoliyatini boshlashni osonlashtiribgina qolmay, balki uning barqaror rivojlanishini ta'minlamoqda. Shu sababli, kelgusida bu yo'nalishdagi loyihalarni yanada kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Zamonaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda faqat moliyaviy yoki soliq yengilliklari emas, balki to'g'ri, tezkor va ishonchli axborot bilan ta'minlash, huquqiy va iqtisodiy maslahat berish ham g'oyat muhimdir. Ayniqsa, kichik va o'rta biznes subyektlari uchun bu xizmatlar muhim tayanch hisoblanadi.

O'zbekistonda bu yo'nalishda keyingi yillarda elektron tizimlar keng joriy etildi. Jumladan: Business.gov.uz – yagona interaktiv platforma bo'lib, tadbirkorlar bu yerda biznes-reja tuzish, kredit olish, litsenziyalar rasmiylashtirish, shuningdek, davlat yordam dasturlaridan foydalanish imkoniyatiga ega.

My.gov.uz portali orqali tadbirkorlar uchun 50 dan ortiq xizmatlar raqamlashtirilgan. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YAIDXP) orqali soliq, bojxona, statistika, kadastr va boshqa tizimlar bilan bog'liq hujjatlarni elektron ko'rinishda topshirish mumkin.


Shuningdek, joylarda tashkil etilgan Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash markazlari orqali ham minglab tadbirkorlar maslahat xizmatlaridan foydalanmoqda. Bu markazlarda huquqiy savodxonlik bo'yicha seminarlar, soliq qonunchiligi o'zgarishlari bo'yicha treninglar hamda marketing va eksport bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi.

Bu tizim tadbirkorlik faoliyatini yuritishda ko'p vaqt va resurslar isrof bo'lishining oldini olib, ularni yanada samarali faoliyat yuritishga undamoqda. Elektron xizmatlarning ortishi esa korrupsiya holatlarining oldini olishda ham ijobiy rol o'ynaydi.

Qishloq joylarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun alohida hududiy dasturlar ishlab chiqilgan. Misol uchun, “Qishloq tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash dasturi” orqali tadbirkorlarga yer uchastkalari, kreditlar va boshqa zarur infratuzilma xizmatlari taqdim etilmoqda. 2021–2023-yillarda qishloq joylarda 16 000 dan ortiq yangi tadbirkor tashkil etildi.


So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida kichik va o'rta biznesning o'sishi va davlat tomonidan berilgan qo'llab-quvvatlash choralari nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish va mahalliy ishlab chiqarishni rag'batlantirishga ham xizmat qilmoqda.

Tadbirkorlik subyektlarining o'sish dinamikasi iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Ayniqsa, yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari sonining ortishi va ularning yalpi ichki mahsulotdagi (YAIM) ulushi sezilarli o'smoqda. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlar ijrosi natijasida 2020-2024-yillar davomida jami 445,4 mingta kichik korxona va mikrofirmalar yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirma sohasi kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida 169,5 mingta (38,1%), xizmatlar sohasida 111,7 mingta (25,1%), sanoat sohasida 81,1 mingta (18,2%), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 57,2 mingta (yoki 12,%) va qurilish sohasida 25,9 mingtani (5,8%) tashkil etgan.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sonining dinamikasi**
(yanvar-dekabr oylarida, ming birlikda)

1-rasm. Iqtisodiyot faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sonining dinamikasi. (ming birlikda).

2024-yil YAIM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 54,3 % ni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan o'zgarishsiz qoldi. 2024-yil kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIM dagi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida -95,8 %, qurilishda -78,4%, xizmatlar sohasida 49,8 %, sanoatda 25,9 % ni tashkil qildi.



2-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIM dagi ulushi dinamikasi.

2024-yil kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 286675,2 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari, qurilish ishlari hajmi 178718,9 mlrd so'mni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 444330,2 mlrd so'mni, chakana savdo aylanmasi hajmi 338802,6 mlrd so'mni, xizmatlar sohasidagi hajmi 466461,8 mlrd so'mni tashkil etdi.

2024-yil kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) eksporti hajmi 9,0 mlrd AQSH dollarini, importning hajmi esa 18963,9 million AQSH dollarini tashkil etdi.

Bu statistik ko'rsatkichlar tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarining samarali amalga oshirilganligini va kichik biznesning iqtisodiyotdagi o'rni tobora ortib borayotganini ko'rsatadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlandi. Davlatning kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga qaratilgan dasturlari, soliq va bojxona imtiyozlari, infratuzilma yaratish, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda maslahat va xizmatlar taqdim etish kabi choralarning samarasi o'z natijasini berdi. Natijada, tadbirkorlik subyektlarining soni va ularning YAIMdagi ulushi ortdi, yangi ish o'rinlari yaratildi va iqtisodiyotda raqobatbardoshlikning oshishi ta'minlandi.

So'nggi yillarda, ayniqsa, qishloq joylarida, ayollar va yoshlar orasida tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Davlatning bu yo'nalishdagi siyosati iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, aholi turli qatlamlarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilishga xizmat qilmoqda.

Biroq, ba'zi sohalarida, masalan, kichik biznes uchun moliyaviy resurslarning yetishmasligi, yirik kompaniyalar bilan raqobatlashish qiyinchiliklari hamon dolzarb muammolar sifatida qolmoqda. Shuning uchun davlat tomonidan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda yanada samarali strategiyalarni amalga oshirish zarur.

Takliflar.

Moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish: Kichik va o'rta biznes subyektlariga kreditlar, subsidiyalar va grantlarni ko'paytirish, shuningdek, investorlar uchun soliq imtiyozlarini yanada kengaytirish kerak. Maxsus imtiyozli kreditlash dasturlarini yanada ommalashtirish va ularga kirish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Innovatsion va texnologik parklar sonini oshirish: Texnologik parklar, startap inkubatorlari va ilmiy-texnik markazlarning sonini ko'paytirish va ularni ta'minlash tizimini mustahkamlash lozim. Bu tadbirkorlarga yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va ishlab chiqarishga qo'llab-quvvatlash beradi. Tadbirkorlar uchun huquqiy yordamni kengaytirish: Yuridik xizmatlar, maslahatchilar va huquqiy yordam tizimini yanada samarali qilish, xususan, kichik biznes subyektlari uchun arzon va sifatli huquqiy xizmatlarni taqdim etish kerak. Bu tadbirkorlarning o'z faoliyatini qonuniy asosda yuritishga yordam beradi. Eksport imkoniyatlarini kengaytirish: Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni xalqaro bozorlarga kirish imkoniyatlarini oshirish, ular uchun marketing, eksport va logistika xizmatlarini taqdim etish kerak. Shu orqali O'zbekistonning eksport salohiyatini oshirish mumkin. Aholi daromadlarini oshirish va ta'minlash: Kichik va o'rta biznesning rivojlanishiga doir davlat dasturlarining ta'sirini kuchaytirish, shuningdek, yangi ish o'rinlari yaratish orqali aholining daromadlarini oshirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash kerak. Tadbirkorlik madaniyatini rivojlantirish: Tadbirkorlikka qiziqqan yoshlarni rag'batlantirish, ularni o'qitish va tayyorlashni davom ettirish zarur. O'zbekistonda tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish va yoshlarni innovatsiyalar va yangi g'oyalar bilan shug'ullanishga undash kerak.

O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samarali natijalarga olib keldi va bu boradagi siyosat, albatta, uzoq muddatda iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy rivojlanishning muhim omiliga aylanishi mumkin. Davlat tomonidan taqdim etilayotgan moliyaviy, huquqiy va infratuzilma xizmatlari, shuningdek, innovatsion imkoniyatlar orqali tadbirkorlikni yanada rivojlantirish va uni xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Bu esa o'z navbatida mamlakatning iqtisodiy mustahkamligini va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Tadbirkorlik faoliyati to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. O'RQ-358-son, 01.01.2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish to'g'risida"gi PF-5511-son Farmoni. 27.06.2018.
3. 2021-2030 yillarda kambag'allikni qisqartirish strategiyasi. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш вазирлиги. 2021.
4. Kazakova, Z. S., & Aslonov, X. (2023). QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI O'RNII. The Journal of Economics, Finance and Innovation, 391-398.
5. Казакова, З. С., & Назарова, М. Ш. (2023). Состояние и тенденции развития сельского хозяйства в узбекистане. Научный Фокус, 1(7), 681-686.
6. Саламов, И., Жонибеков, Ф. Б., Казакова, З. С., & Назарова, М. Ш. (2022). САМАРҚАНД ВИЛОЯТИНИНГ ИҚТИСОДИЙ ТАРМОҚЛАРИДА ИННАВАЦИЯ ВА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИ ЖОРИЙ ЭТИШНИНГ ИСТИҚБОЛДАГИ ИМКОНИАТЛАРИ. Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions (Germany), 482-485.
7. Salamov, I., Jonibekov, F., Kazakova, Z., & Nazarova, M. (2022). The Role of Investments in Ensuring the Economic Stability of Livestock and Prospective Opportunities. INTERNATIONAL JOURNAL OF BIOLOGICAL ENGINEERING AND AGRICULTURE, 1(3), 1-4.
8. Salaxiddinovna, K. Z., & Iskandarovna, I. I. (2024). OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI YETISHTIRISHNING HUDUDIIY JIHATLARI. SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 7(2), 247-256.
9. Sh, N. M., & Kazakova, Z. S. (2024). Oziq-ovqat xavfsizliginita'minlashda qishloqxo'jaligi mahsulotlari yetishtirishning hududiy jihatlari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT Jurnal.
10. Sh, N. M., & Kazakova, Z. S. (2024). Agrar sektorda ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishning nazariy masalalari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnali.



11. Sh, N. M., & Kazakova, Z. S. Tarmoq mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishda innovatsion texnologiyalarni qo'llashning iqtisodiy samaradorligi YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT Jurnal. 2024 yil. 18-19 aprel. "Raqamli iqtisodiyot sharoitida agroiqtisodiyot va buxgalteriya hisobining dolzarb muammolari va ularning yechimlari" professor N. Sanayev tavalludining, 85.
12. Salamov, I., Nazarova, M., Kazakova, Z., Jonibekov, F., Kudratov, R., Ulmasova, O., ... & Xudayberdiyeva, M. R. (2024). Faol tadbirkorlar faoliyatida kambag'al oilalarni iqtisodiy-ijtimoiy holatini yaxshilash imkoniyatlari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(2).
13. Salamov, I., Kazakova, Z. S., Nazarova, M. S., & Jonibekov, F. B. (2022). Prospects for digitalization of order tables in infrastructure development in agriculture of the republic of uzbekistan.
14. Salaxiddinovna, KZ (2023). Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyot va buxgalteriya hisobini o'qitish metodikasi. Periodica Zamonaviy falsafa, ijtimoiy va gumanitar fanlar jurnali , 18 , 66-68.
15. Nazarova, M. S., & Kazakova, Z. S. (2024). Agrar sektorda ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishning nazariy masalalari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(2).
16. Nazarova, M., & Kazakova, Z. (2023). Paxta-to'qimachilik klasterlarida sotish baholarining tahlili. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(11-12).
17. Казакова, З. С., & Жиянов, Ш. Р. (2025). ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЖИВОТНОВОДСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ. AMERICAN JOURNAL OF BUSINESS MANAGEMENT, 3(3), 55-61.
18. Salaxiddinovna, K. Z., & Raxmonberdiyevich, J. S. (2025). OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA QISHLOQ XO'JALIGI HOLATI TAHLILI. AMERICAN JOURNAL OF BUSINESS MANAGEMENT, 3(3), 30-37.
19. Назарова, М. Ш., Казакова, З. С., & Бердикулов, Р. А. У. (2025). ВОЗМОЖНОСТИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОТ ЭКСПОРТА ФРУКТОВ, ОВОЩЕЙ И ВИНОГРАДА. AMERICAN JOURNAL OF BUSINESS MANAGEMENT, 3(2), 188-191.
20. Kazakova, Z., & Nazarova, M. (2024). Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishning hududiy jihatlari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(1).
21. Nazarova, M., & Kazakova, Z. (2024). Tarmoq mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishda innovatsion texnologiyalarni qo'llashning iqtisodiy samaradorligi. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(1).
22. Kazakova, Z., Abdullayev, S., & Sunnatullayev, M. (2024). Raqamli iqtisodiyotning o'zbekistondagi holati va uning rivojlanish istiqbollari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(1).
23. Kazakova, Z., Ulmasov, A., & Botirov, B. (2024). Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o'rni va ahamiyati. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(1).
24. Саламов, И., Назарова, М. Ш., & Казакова, З. С. (2024). ИНФРАТУЗИЛМАДА БАНДЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ ВА КАМБАҒАЛЛИКНИ КАМАЙТИРИШНИНГ ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИКНИ ОШИРИШДАГИ ИМКОНИЯТЛАРИ. In The World Of Science and Education, (15 ноябрь ЭН), 36-39.
25. Ablaqulovich, IG, Salaxuddinovna, KZ, Uytalovich, NU, & Matlubovich, TO (2020). Paxta-to'qimachilik klasterini tashkil etishning hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri. International Engineering Journal For Research & Development , 5 (4),5-5.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. aprel. maxsus son / № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
